

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSIETI**

Zilola Shukurova

**ESKI O‘ZBEK YOZUVI
VA MATNSHUNOSLIK**

O‘quv qo‘llanma

TOSHKENT – 2026

UO‘K: 811.512.133(075)

KBK: 81.1

Sh 91

Shukurova Zilola.

Eski o‘zbek yozuvi va matnshunoslik [Matn]: o‘quv qo‘llanma / Z. Shukurova. – Toshkent:

O‘quv qo‘llanmada eski o‘zbek yozuviga asos bo‘lgan arab alifbosi va uning tarixi, yozuv qoidalari, xususiyatlari hamda taqdiri haqida so‘z yuritilgan. Kitobda har bir yangi mavzu yuzasidan misollar berilib, mustahkamlangan. Shuningdek, tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarning izohli lug‘ati ham tuzilganki, u matn mazmunini to‘liq anglashda yordam beradi. Ushbu qo‘llanma oliy o‘quv yurti talabalari hamda shu sohaga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Taqrizchilar:

N.Jabborov, filologiya fanlari doktori, professor

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 21-avgustdagi 316-sonli buyrug‘iga binoan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-06-903-1

© Shukurova Z., 2026.

SO‘ZBOSHI

Jahon adabiyoti tarixida ko‘plab o‘lmas asarlar yaratilgan bo‘lib, shu millatning o‘tmishi, madaniyati, urf-odati, qiziqishlari haqida qimmatli ma’lumot beruvchi manba sifatida qadrlanadi. Shu sababli dunyoning yetakchi olimlari milliy tarixini chuqur o‘rganishga alohida e’tibor qaratib, ajdodlaridan qolgan merosni qidirib topish, saqlash, tadqiq qilish va kelajak avlodga nuqsonsiz yetkazishga astoydil harakat qilishmoqda.

Mamlakatimizda ham qadimiy va boy madaniy merosimizni asrab avaylash va ularni chuqur o‘rganish orqali ishonchli matnni tiklash, matn tarixini xolisona yoritish, manbalarda yashiringan ijodkor maqsadini tugal ochib berish kundan-kunga dolzarb bo‘lib bormoqda. Chunki o‘tmishdan saboq olib, kelajakka qadam qo‘yish har bir xalqning ustuvor maqsadlaridan bo‘lishi lozim. Zero, o‘tmishini bilmagan xalqning kelajagi bo‘lmaydi.

Mustaqillikka erishgan yillardanoq milliy o‘zlikni anglash tamoyiliga amal qilib, qadimiy manbalarni tadqiq qilayotgan sohalar faoliyati kuchaytirildi, eski o‘zbek yozuvi, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning nazariy va amaliy masalalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonning 73-maqsadida belgilangan **“Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish”** ana shu xayrli ishning amaliy ifodasidir. Misol uchun, mustaqillik yillariga qadar eski o‘zbek yozuvini o‘rganish bo‘yicha birgina R.Jumaniyozovning “Eski o‘zbek yozuvi” darsligi nashr qilingan bo‘lsa, mustaqillik yillarida M.Hamidova, I.Azimov, R.Zohidov, M.Abdulxayrov, N.Sulaymonova, M.Tojiboyeva, A.G‘oziyev, A.Atayev va boshqa ustozlar tomonidan bir qancha o‘quv qo‘llanma va darsliklar chop etildi. Ushbu manbalarning har biri yuksak bilim va e’tibor bilan yozilgan bo‘lib, qadimiy qo‘lyozmalarni o‘qish, o‘rganish va tadqiq qilishda muhim qo‘llanmalar hisoblanadi.

Mazkur o‘quv oliy o‘quv yurti talabalari hamda qadimiy qo‘lyozmalarni o‘qishga qiziquvchilarning savodini tez va oson chiqarishni maqsad qilib, talabalarning qisqa vaqt ichida ko‘proq